



THE IMPORTANCE OF ECOLOGICAL-LEGAL EDUCATION AND EDUCATION

Azizova Nilufar Farkhadovna

Second-level lawyer of the Yangikurgan district of the State Legal Service of the Republic of Uzbekistan, Namangan region

azizova.nilufar.89@mail.ru

Article history:	Abstract:
Received: 20 th May 2025 Accepted: 14 th June 2025	This article highlights the importance of ecological and legal education and education in the life of society. The role of raising the environmental awareness and legal culture of citizens in environmental protection is emphasized. Also, the priority tasks of forming ecological and legal knowledge in educational institutions, methods of education related to the study of environmental legislation and practical activities are discussed. The author emphasizes the important role of ecological education in ensuring ecological sustainability and responsibility in society. The article briefly discusses the issue of the harmony of ecological and legal education and environmental education from a scientific point of view.

Keywords: Ecological and legal education, education, nature, ecological culture, ecological enlightenment, ecological rights and duties.

EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI

Azizova Nilufar Farxadovna

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani FXDYO bo'limi ikkinchi darajali yuristi

azizova.nilufar.89@mail.ru

Annotasiya: Ushbu maqolada ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi ahamiyati yoritilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilishda fuqarolarning ekologik ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning o'rni ta'kidlangan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida ekologik-huquqiy bilimlarni shakllantirishning ustuvor vazifalari, ekologiyaga oid qonunchilikni o'rganish va amaliy faoliyat bilan bog'liq tarbiya usullari muhokama qilingan. Muallif ekologik tarbiyaning jamiyatda ekologik barqarorlik va mas'uliyatni ta'minlashdagi muhim rolini alohida ta'kidlaydi. Maqolada ekologik-huquqiy ta'lim va ekologik tarbiyaning uyg'unligi masalasi qisqacha ilmiy nuqtai-nazardan muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik-huquqiy tarbiya, ta'lim, tabiat, ekologik madaniyat, ekologik ma'rifat, ekologik huquq va burchlar.

Asosiy qism: Ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiyaning ahamiyati

Ekologik muammolar bugungi kunda butun insoniyat uchun dolzarb masalalardan biriga aylandi. Tabiat resurslarining cheklanganligi, atrof-muhitning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi – bularning barchasi inson faoliyati natijasida yuzaga kelmoqda. Shu bois, ekologik masalalarni hal etishda aholining ongli ishtiroki, ekologik madaniyat va huquqiy bilimlarga ega bo'lishi juda muhimdir. Ekologik ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifasi barcha o'quv muassasalari tinglovchilariga ekologik qonunchiligimizni, birinchi navbatda Konstitutsiyada belgilangan ekologik burchlarni o'rgatish va tabiatga hurmat ruhini shakllantirishdan iboratdir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda hozirgi kunda ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiyaning ahamiyati muhimdir. Ekologik-huquqiy ta'lim asosida o'z ekologik huquqlarini va burchlarini yaxshi bilgan jamiyat a'zolarigina ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ekologik ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo'ladi.

Ekologik-huquqiy tarbiyani tashkil qilishda, uni takomil-lashtirishda, ekologik qonun normalarini hayotga tadbqiq qilishda davlat va uning rahbarlari tomonidan o'tkazilayotgan ekologik siyosat va tadbirlar ham muhim rol o'ynamoqda. Oliy Majlisning bir necha sessiyalarida ta'lim masalasi diqqat-e'tiborda bo'ldi. Bizningcha, taraqqiyot taqdirini, sog'lom ekologik muhitni asrab avaylashni, biosferani saqlab qolishni ham ma'naviy jihatdan etuk odamlargina hal qiladilar. Ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan fanlarni imkon qadar ekologik – huquqiy ta'lim tarbiya bilan bog'lab olib borilishi maqsad qilib qo'yilishi lozim. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ekologik-huquqiy tarbiya samarali, foydali bo'lishi uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur deb o'ylaymiz:

- ekologik ta'lim, tarbiya berishda tarixiy meroslarimizdan foydalanish, ularni hozirgi zamon talablariga bog'lash zarur. Bunda Qur'oni Karim, Hadis va boshqa manbalardagi ko'rsatmalardan foydalanish katta samara berishi mumkin;



- buyuk ajdodlarimiz pand-nasihatlaridan, ibratli fikrlaridan foydalanish ham ekologik ta'lim tarbiyaning ta'sirini oshirishi mumkin;

- Konstitutsiya va ekologik qonunlarning ezgu maqsadlarini, tabiiy muhitni muhofaza qilish g'oyasini aniq ko'rsata bilish, ekologik ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolishi kerak. Bunda qonunlardagi milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik, vatanparvarlik, tabiatsevarlik, ahloqiy poklik, madaniy merosga hurmat, ekologik qonunlarga nisbatan itoatkorlik, mustaqillik g'oyalari sadoqat, din va qadriyatlarga hurmat tinglovchilar ongiga, qalbiga singdirilishi shart;

- ta'lim muassasalari joylashgan hududlardagi ekologik muammolar va uning xavfi hamda ularning oldini olish choralari haqida, iqtisod, tejamkorlik, isrof, uvol, qilmaslik masalalariga ob'ektiv yondoshib, tabiat boyliklarini asrashga larni ko'z qorachig'iday tutishga o'rgatish lozim;

- ekologik muammolarning oldini olish, hamda bartaraf etish tadbirlari bilan bog'liq vaziyatlarni tushuntirish orqali mamlakat, korxona va tashkilotlarning, transportlarning, biz insonlarning tabiatga ta'sirimiz haqida ma'lumotlar berish bilan birga, tabiat muhofazasi bo'yicha o'tkazilayotgan har bir tadbirlarda qatnashish va bu borada o'zgalar mehnatini qadrlashni o'rgatib borishimiz lozim;

- ekologik huquqbuzarliklar uchun albatta, jazo muqarrarlari qo'shgan O'zbekiston Respublikasining bir qator kodekslari bilan tartibga solinishi haqida, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining vakolatlari va uning tegishli organlari haqida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir;

- o'quvchi-yoshlarni ekologik tarbiyasini kuchaytirib, takomillashtirib borish yo'li bilan, ularda tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq kasblarga muhabbat uyg'otish, ekologik muammolarning oldini olish va shu sohada doimiy izlanuvchi kadrlar bo'lib etishishida poydevor yaratib, oldindan tayyorlab borish ham ekologiya borasida olib borilyotgan tadbirlarimiz ta'sirini yanada kuchaytirishi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ekologik-huquqiy ta'lim nima va u nima uchun zarur?

Ekologik-huquqiy ta'lim — bu insonlarni tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish, uni muhofaza qilish, ekologiyaga oid qonun-qoidalarni bilish va ularga amal qilishga o'rgatish jarayonidir.

Uning ahamiyati shundaki:

- Tabiatni asrashga oid qonunlarni bilish, insonni o'z xatti-harakatlari uchun javobgar ekanligini anglashga yordam beradi.

- Aholi o'rtasida ekologik huquqiy savodxonlikni oshirish orqali qonunbuzarliklar kamayishi mumkin.

- Yashil muhitda hayot kechirish va sog'lom avlod tarbiyalash uchun asos yaratiladi.

Ekologik tarbiyaning vazifalari

Ekologik tarbiya fuqarolarda tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish, uni saqlash va muhofaza qilishga intilish, ekologik fikrlashni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qiladi.

Asosiy vazifalari:

- Talabalar va o'quvchilarni tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga o'rgatish.

- Atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi huquq va majburiyatlar bilan tanishtirish.

- Inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirish.

- Ekofaol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Huquqiy tarbiya bilan bog'liq jihatlar

Har bir fuqaro ekologiya sohasidagi huquqiy normalarni bilishi kerak. Masalan: O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.

- Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari.

- Ekologik ekspertiza va ekologik monitoring qoidalari. Insonning tabiat atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatini shakllantirish davlat jumladan ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Endilikda o'quvchilarda barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish ustivor vazifaga aylandi.

Bular uzliksiz ta'lim tizimi shu jumladan maktab va maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarni ekologik tarbiyalash ularda barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

- *Maktab va oliy ta'lim muassasalaridagi roli*

Ekologik-huquqiy ta'limni maktab va universitetlardan boshlash zarur. Bu bilimlar faqat nazariy emas, amaliy misollar bilan boyitilishi lozim. Ekologik loyihalar, tozalik aksiyalari, muhokamalar, simpoziumlar bunda katta ahamiyat kasb etadi.

Ekologik ta'lim jaraenida nazariyadan amaliyotga — global muammolarni muhokama qilishdan o'quvchilar bilan amaliy sa'y-harakatlarni bajarishga o'tish davr talabiga aylandi.

Tabiat bilan inson orasidagi munosabatlar murakkab tarixiy xarakterga ega. Insoniyatning asrlar davomida tabiat unsurlaridan

foydalanib kelishi, tabiatga bo'lgan munosabatining turli davrlarda turlicha o'zgarishiga sabab bo'lgan. Qadimda ota-bobolarimizning tabiatga, tabiat unsurlariga, bo'lgan munosabati ilohiy bo'lgan. Suv, havo, tuproq va olovni muqaddas sanashgan. Suvni e'zozlab, xattoki unga tupirish, ifloslash, gunoh ish ekanligi, tuproqni muqaddas bilish haqida Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi Avestoda alohida ta'kidlab o'tilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki ekologik ta'lim va ekologik



tarbiya bizning qon-qonimizga singib ketgan tushunchalardan sanaladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki insoniyat qanchalik uzoq umr kechirishni sog'lom bo'lishni farzandlarining sog'salomat bo'lishini, toza havodan to'yib nafas olishni, atrofiga boqqanda go'zallikni ko'rishni xohlasa, avvalo tabiatga munosabatini o'zgartirishi, ona tabiatni sevishi o'zi va kelajak avlodga ona tabiatning naqadar muqaddas ekanligini singdira olishi lozim. Buning uchun esa xar birimiz ekologik ta'lim va ekologik tarbiyaning bir-biri bilan uyg'unligini anglab etishimiz ekologik ta'lim orqali ekologik tarbichni shakllantirib borishimiz zarur. Dunëning eng toza davlvtlari Norvegiya, Shvesiya, Avstriya, Ispaniya, Germaniya, Chexiya, Singapur, Avtraliya, Lyuksenburg, Shvesariya kabi davlvtlari o'zining atmosferasi va ekologiyasining tozali bo'yicha etakchi o'rinlarda turadi. Bu mamlakatlarga xar yili atmosferasi va ekologiyasi tozaligidan bahramand bo'lish uchun dunëning turli mamlakatlaridan sayëhlar tashrif buyurishadi. Toza muhit, sog'lom va tinch haëtni ta'minlaydi va bu toza davlvt axolisining o'rtacha umr kechirish davomiyligining uzunligini xam belgilab beradi. Shunday ekan biz ham yurtimizn toza xudud.toza mamlakatga

aylantiraylik. O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiyani hayotiy misollar asosida, qo'lga kiritilayotgan ekologiya borasidagi yutuqlarni isbotlovchi dalillar asosida berish har tomonlama foydalidir. Ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya faqat bilim berish emas, balki ekologik madaniyatni shakllantirish vositasidir. U kelajak avlodning ongli, mas'uliyatli va tabiatni asraydigan fuqaro sifatida tarbiya topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

ro'yxati

1. O'zbekistonda ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining PQ-434 sonli qarori. 27.05.2017 yil
3. Karimov B. "Jamiyat va ekologik madaniyat" – "Muloqot" 2009 № 5
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
5. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: "Adolat", 2021.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: "Huquq", 2022.
7. Karimov I.A. Tabiatni asrash – umummilliy ish. // Xalq so'zi, 2015 yil 22 aprel.
8. Toshmuhamedov A. Ekologik ta'lim va tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

9. Solieva M.M. Ekologik madaniyat va huquqiy ong: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.

10. Abdullaeva D. Ekologik huquq asoslari. – Toshkent: "Huquq dunyosi", 2019.

11. Qodirov M. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

12. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.

13. Nasriddinov Sh. Ekologik xavfsizlik va barqaror taraqqiyot. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.